
QO'SHTEPADA 3 MILLIARD 300 MILLION SO'MLIK LOYIHA AMALGA OSHIRILMOQDA

Qo'shtepa tumani Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi xodimlari "Kamron poyabzal" oilaviy korxonasida bo'lib, u yerda olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdilar.



Ushbu oilaviy korxonadan poyafzal ishlab chiqarishni kengaytirish loyihasi amalga oshirilmoqda. Korxonadan qiymati 3 milliard 300 million soʻmlik loyiha amalga oshirilib, yiliga 540 ming juft poyafzal mahsulotlari ishlab chiqarish koʻzda tutilgan. Ushbu loyiha amalga oshirilishi natijasida 70 nafardan ortiq yangi ish oʻrinlari yaratilib, asosan ayollar va yoshlar bandligi taʼminlanadi.



